

OTLARIDA MIOZITNING ETIOPATOGENEZI VA DAVOLASH

Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va
biotexnologiyalar universiteti Nukus filiali.

Assistent: Bekmuratov K.R

Assistent: O.R. Raximov

Assistent: A.R. Yusupov

Annotatsiya. Ushbu maqalada qoramollar orasida distal qismidagi kasalliklarini urganish, tuyoq kasalliklarining polietialogik sabablarini urganish haqida ma'lumotlar keltirilgan. Qoramollar orasida tuyoq kasalliklari keng tarqalgan bo'lib, ushbu etiopatogenezi urganish katta ahamiyatga ega.

Kalit so'zlar: qoramol, etiopatogenez, distal, tuyoq, chorvachilik, yiringli pododermatit,

Kirish. Sog'lom hayvonlarni o'stirish va ulardan sifatli hamda to'lig'icha foydalanish maqsadida veterinariya fani va amaliyot mutaxasislari oldida katta vazifalar turibdi, chunki faqat sog'lom hayvon barcha talablarga javob berishi mumkin [3].

Mintaqamiz va xorijiy mamlakatlarda qishloq xo'jalik hayvonlar va shu jumladan otlarning yuqumsiz kasalliklari, barcha kasalliklarning o'rtacha 94–96 % ni tashkil qiladi. Bu kasalliklar natijasida xo'jaliklarda hosil bo'ladigan iqtisodiy zarar mahsuldorlik keskin pasayishi, ekspluatatsion sifatlar yomonlashishi, hayvonlarni muddatdan avval hisobdan chiqarish va ayrim hollarda ularning o'limidan kelib chiqadi.

Sport otlarini tayyorlashning zamonaviy tizimi va ularning musobaqalarda ishtirok etishi tayanch-harakat apparatiga jiddiy yuklanishar va barcha tana tizimlarining maksimal mobilizatsiyasi bilan bog'liq bo'lib, bu ma'lum mushak guruhlarining haddan tashqari zo'riqishiga olib keladi, shikastlar ehtimoli va og'irligini oshiradi, musobaqalarda sport oti uzoq vaqt faoliyat ko'rsata ololmasligi va natijalari yomonlashishi sodir bo'ladi.

Shu sababli ot sportini rivojlantirish Xalqaro ot sporti federatsiyasi tomonidan belgilab berilgan va ot sporti dasturiga kiritilgan turli ot sporti turlari musobaqalarida yuqori va barqaror natijalarga erishish uchun sport otlarining salomatligi va yuqori ko'rsatkichlarini ta'minlashga yuqori talablarni qo'yadi

Ma'lumki, otlarda uchraydigan turli xildagi patologik jarayonlar va shu jumladan mushak kasalliklari ularning hayotiy faoliyatini susaytiradi va ekspluatatsiya xususiyatlarini pasaytiradi. Shuning uchun bu holat yilqichilikni rivojlantirish muammolaridan biri hisoblanadi. Ammo otlarda uchraydigan ayrim kasalliklar ularni saqlash va ko'paytirishda jiddiy qiyinchiliklar

tug'diradi. Shu kasalliklar orasida otlarning lokomotor apparati kasalliklari ham juda ko'p uchrab, bu kasalliklar otlarni erta yaroqsiz bo'lib qolishiga sabab bo'lmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining yangi, 11.03.2021-yildagi "Yilqichilik va ot sportini yanada rivojlantirish hamda zamonaviy beshkurash va polo sport turini ommalashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" PQ-5024-son qaroriga asosan, Mamlakatimizda yilqichilik, naslchilik va ot sportini rivojlantirish, mahalliy zotdor otlarni ko'paytirish, zamonaviy beshkurash va polo sport turini ommalashtirish, sohaga to'g'ridan to'g'ri xorijiy investitsiyalarni keng jalb etish, shuningdek, moddiy-texnik bazasini mustahkamlash maqsadida, O'zbekistonda yilqichilik va ot sportini hamda zamonaviy beshkurash va polo sport turlarini yanada rivojlantirishning asosiy yo'nalishlari etib belgilash, mamlakatda ot sportini aholi o'rtasida eng ommaviy sport turlaridan biriga aylantirish ko'zda tutilgan [9].

Shu boisdan, sport otlarida uchraydigan miozit larning uchrash darajasi, ularga erta tashxis qo'yish, etiopatogenezi aniqlash, davolash va oldini olishning samarali uslub va vositalarini ishlab chiqish maqsadida olib borilayotgan tadqiqotlar dolzarb bo'lib hisoblanadi.

Mintaqamiz va xorijiy mamlakatlarda qishloq xo'jalik hayvonlar va shu jumladan otlarning yuqumsiz kasalliklari, barcha kasalliklarning o'rtacha 94–96 % ni tashkil qiladi. Sport otlarida shikastlanishlar umumiy kasalliklarning 86 foiziga, 37% esa mushak, pay va bo'g'imlarning patologiyasiga to'g'ri keladi. Yaqin vaqtgacha veterinariya amaliyotida tezkor tashhis qo'yishning ishonchli usullarini topish masalasi dolzarb bo'lib qolmoqda, ular qisqa vaqt ichida ishonchli tashhis qo'yish, o'z vaqtida etarli davolanishni belgilash va qisqa vaqt ichida terapevtik ta'sirga erishish imkonini beradi [5].

Harakat organlarining shikastlanishi qisqa muddat ta'sir etuvchi kuchli yoki kuchsiz lekin uzoq ta'sir etuvchi omillar ta'sirida hosil bo'ladi. Natijada organ va to'qimalarda o'ziga xos jarayon kechadi. Hayvon organizmining to'qima va organlarini boshqaruv mexanizmlari qo'zg'atuvchi omildan yetarlicha ustun bo'lmasligi mumkin. Buning oqibatida ham shikastlangan organ va to'qimalarda o'zgarish paydo bo'ladi, jarohatlangan organ va to'qimalarning hujayralari elementlarida strukturali o'zgarishlar hosil bo'ladi, ya'ni patologik jarayonlar rivojlanadi [1].

Ot sportida shikastlar ko'pincha ot to'siqdan sakrab o'tganida, yiqilganida, mashq qilinadigan joyning yaxshi tayyorlanmasligida, sport qurilmalari va inventarning nosozligida, qoqilgan taqa mashq turiga to'g'ri kelmaganida paydo bo'ladi. Undan tashqari tayanch–harakat apparati tomonidan bir xil

takrorlanadigan harakatlarni uzoq vaqt bajarish muskul va paylarning mikrouzilishlariga olib keladi [7].

Miozit ko'pincha otlarda, kam hollarda boshqa hayvonlarda uchraydi. U shikastlar (muskullarning lat yeyishlari, qisman va to'liq uzilishlari) natijasida hamda miozitlarning turli shakllarida hosil bo'ladi. Suyaklashuvchi miozit markaziy asab tizimi zararlanganda rivojlanganligi to'g'risida ma'lumotlar mavjud [8].

Tadqiqotning maqsadi. Qoraqolpog'iston Respublikasi otchilik xo'jaliklari sharoitidagi otlar orasida uchraydigan mushak kasalliklarni, xususan miozitning etiopatogenezi, diagnostikasi, davolash va oldini olish chora-tadbirlarini ishlab chiqishni maqsad qilib oldik.

1. Otlarda uchraydigan o'tkir miozitlarni etiologiyasini va tarqalishini o'rganish;

2. Otlarda uchraydigan o'tkir miozitlarni davolashning zamonaviy usullarini ishlab chiqish.

Tadqiqot obekti va usullari. Qoraqolpog'iston Respublikasi otchilik xo'jaliklari va aholi qaromag'idagi otlardagi miozitlarni samarali davolash usulini ishlab chiqish maqsadida 10 bosh otda tadqiqot ishlari olib borilishi rejalashtirilgan. Otlarning 5 boshi nazorat va 5 boshi tajriba guruhlariga ajratildi. Tadqiqot ishlari asosan hayvonlar saqlanadigan joylarda olib borildi. Har bir hayvonda kasallikning bosqichlari, patogenezi va hayvonning umumiy holati aniqlandi. Har bir guruh otlarda davolash usullari kasallikning darajasiga qarab tanlanadi.

Tadqiqot natijalari va ularning tahlili. Kasallangan otlarni tekshirish va davolashda jarrohlik usullarini qo'llash natijalari miozitlarni ertachi bosqichlarda samarali davolash usulini tanlashga imkon beradi, olingan ma'lumotlar klinik o'qitish jarayonida qo'llanishi mumkin.

Mushak to'qimasining taraqqiyoti organizmning butun umri davomida to'xtamaydi va o'zgaruvchan sharoitlarga moslashib turadi. Mushak tolalari uzayishi va yo'g'onlashishi mumkin, bu jarayon asosida gipertrofiya yotadi.

Miotomlarning ikkinchi xil hujayralari boshqa yo'nalishda tabaqalanib, miosatellitositlarga aylanadi. Miosatellitositlar miosimplast yuzasiga yopishib turadi va ularning plazmolemmalari bir-biri bilan kontaktda bo'ladi. Bir miosimplast yuzasida ko'plab bunday hujayralar yotadi. Miosatellitosit bir o'zakli, mofibrillalari yo'q, organellalari o'zak atrofida joylashgan hujayradir. Ular mushak to'qimaning kambial elementlari hisoblanadi [5].

Regeneratsiya paytida yallig'lanish, degeneratsiya va boshqa sabablarga ko'ra, tiklanish ko'pincha to'liq bo'lmaydi. Hosil bo'lgan nuqson biriktiruvchi to'qima bilan to'ladi. Ammo ma'lum sharoitlarda to'liq regeneratsiya ham

kuzatilishi mumkin. Shikastlanishdan keyin zararlangan mushak tolasida sarkoplazma va ko'plab o'zaklardan iborat mushak kurtaklari o'sib chiqadi va undagi o'zaklar amitoz yo'li bilan bo'lina boshlaydi. Keyin mushak kurtakdan mioblastlar ajraladi. Zararlangan tola makrofaglar ishtirokida yemiriladi. Tiklanishning bundan keyingi fazalari ko'p jihatdan normal gistogenezni eslatadi [2].

Miozit – shikast, uzilish, revmatizm va ayrim infeksiyon kasalliklari natijasida muskulning yallig'lanishi. Miozitlar turli shakllarda (seroz, yiringli, fibrinoz) kechadi. Miopatoz – yallig'lanishsiz, og'riq va funksiya buzilishi bilan kechadigan muskul kasalliklari. Sababi – uzoq vaqt mobaynida bir xil ishini bajarish yoki otxonada turishdan kelib chiqadigan aloxida yoki bir gurux muskullarning haddan ziyod toliqishi yoki zo'riqishi, eksteryer defektlari va boshqalar. Kasallangan sport otlarida jarohatlar umumiy kasalliklarning 86% ga yetishi mumkin, bundan 37% i esa mushaklar, pay va bo'g'imlarning patologiyalaridir [6].

Sport otlarida o'tkir aseptik miozit hayvonlar shikastlanishi natijasida rivojlanadi va bir qator etiologik omillar ta'sirida yuzaga keladi, ularning asosiylariga zamonaviy talablarga javob bermaydigan yugurish va poyga yo'laklaridan foydalanish, mashg'ulotlar doimiy emasligi, parvarishlash va oziqlantirish texnologiyasi buzilishi, otlarni ozuqa birliklari, hazm bo'ladigan oqsil, xom tola, fosfor, mis, rux, yod, A, B, E, B₆ va B₁₂ vitaminlari yetishmaydigan va bir vaqtning o'zida kalsiy, magniy, temir, marganets, B₁, B₂, B₃, B₄ vitaminlari va nikotin kislotasi ortiqcha bo'lgan ratsion bilan boqish [4].

Miozida mushakning xajmi kattalashadi. Palpatsiyada kuchli og'riq seziladi, u tarang va zich, zararlangan joyning terisi issiq va shishgan bo'ladi. Zararlangan mushakning bajaradigan funksiyasiga qarab oqsash turi rivojlanadi. Miopatozda harakatlanadigan oyoqlar kuchsizlanadi, ularning oldinga chiqarilishi va tayanishi noaniq, kasallangan mushaklar bo'shashgan va og'riqsiz bo'ladi [6].

Miozitlarni davolashda isituvchi kompresslar qo'llaniladi, fizioterapevtik muolajalar bajariladi, abscesslar ochiladi, antibiotiklar va sulfanilamidlar qo'llanadi. Miopatozda issiqlik, massaj, ultratovush, zararlangan joyga yod tuzlari bilan ionoforez qilinadi [7].

Miozit – shikast, uzilish, revmatizm va ayrim infeksiyon kasalliklari natijasida mushakning yallig'lanishidir. Miozitlar turli shakllarda (seroz, yiringli, fibrinoz) kichadi. Sport va salt miniladigan otlarning sezilarli foizimuskul kasalliklariga chalingan. Shuning uchun ularni mashq qildirishda qiyinchiliklar paydo bo'ladi. Ularda uchraydigan muskul kasalliklaridan eng ko'p lokal miopatiya kuzatiladi. Lokal miopatiya, yoki azoturiya, orqa va bel,

ayrim hollarda son mushaklarini zararlaydi. Kasallikning klinik belgilari – taranglashish, og‘riq, rigidlik birdaniga mashqdan keyin yoki uni bajarish vaqtida paydo bo‘ladi. Muskullardagi og‘riqda otda tos oyoqlarining “sirpanuvchi” qadami paydo bo‘ladi. Zararlangan sohani qashov bilan tozalaganda, yoki chavandoz o‘tirmoqchi bo‘lganda ot og‘riqdan qochib, belini egadi. Davolash ishlari olib borilmasa, kasallik surunkali shaklga o‘tadi va natijada muskullar atrofiyasi rivojlanadi. Bu kasallikning oldini olish uchun ozuqaga E vitamini va selen qo‘shiladi [9].

Tajribalar uchun o‘tkir aseptik miozit bilan kasallangan 10 bosh otlar olinib, 2 ta guruhga 5 boshdan ajratildi (1- jadval).

Tajriba sxemasi

1-jadval

№	Guruhlar	Hayvonlar soni	Davolash muolajalari
1	Nazorat guruhi	5	1. Dimeksid 2. Gentamitsin 10 ml 3. Kamfora spirti
2	Tajriba guruhi	5	1. Dimeksid 2. Gentmitsin10 ml 3. Kamfora spirti 4. Gemobalans 10 ml/450 kg.

Nazorat guruhi hayvonlarida quyidagi davolash muolajalari qo‘llanildi: birinchi navbatda kasallikni chaqirgan sabab yo‘qotildi. Saqlash sharoiti yaxshilandi. Ratsion normallashtirildi.

Davolash muolajalari quyida ko‘rsatilgandek bajarildi:

O‘tkir aseptik miozit bilan kasallangan 5 bosh otlarga 5-6 kunga tinch sharoit yaratildi, keyinchalik har kuni 30 daqiqa yurgizildi. Otlarga avval Dimeksid preparati, keyinchalik kamforali spirt bilan massaj qo‘llanib, usti issiq o‘rab qo‘yildi. Gentamitsin antibiotigi 10 ml dan muskulga yuborildi.

Tajriba guruhdagi hayvonlarida ham huddi shunday davolash usullari qo‘llanildi, faqat qo‘shimcha sifatida Gemobalans preparati 10 ml/450 kg miqdorda mushak ichiga yuborildi.

Xulosa.

1. Tekshirilgan otlarda miozit kasalligi asosan milliy ot o‘yinlarda olingan mexanik shikastlarda, otlar ularga yaxshi tayyorlanmaganda, chavandoz o‘quvsizligi, shuningdek, allergik va revmatik ta’sirlar natijasida sodir bo‘lgan.

2. Tekshirilgan otlarda mushaklarning xajmi kattalashganligi, palpatsiyada kuchli og'riq, hayvon harakatdan butunlay voz kechishi, taxikardiya, ko'p terlash kabi klinik belgilar kuzatildi.

3. O'tkir aseptik miozitta Gemobalans preparati 10 ml/450 kg mushak ichiga in'yeksiya qilingan hayvonlar qonida limfotsitlar miqdori 30,7% ga va gemoglobin miqdori 42,5%ga ko'paydi ya'ni morfologik ko'rsatkichlari tajriba davomida yaxshilanib borganligi kuzatildi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Ibragimov Sh.I. va boshq. "Sitologiya, gistologiya va embriologiya". Toshkent. 2006

2. Кавешников В.С. Основы экономики коневодства / В.В.Калашников, КХА.Соколов, В.Ф. Пустовой и др. // Практическое коневодство. М.: Колос, 2000. - С. 321 - 353.

3. Бганцева, Ю. С. Комплексная ультразвуковая и рентгенографическая диагностика при заболеваниях межкостной третьей мышцы у лошадей / Ю. С. Бганцева, Т. Ш. Кузнецова, Б. С. Семенов // Вестник Алтайского аграрного университета. - 2018. - №2(160). - С.141-146.

4. Сергиенко Г.Ф. Лазерное излучение при болезнях опорно-двигательного аппарата лошадей / Г.Ф. Сергиенко, Г.О. Стикина, И.И. Болковой//Ветеринария.-2002.-№6.-С. 37-41.

5. Стекольников, А.А. Ортопедия и ковка лошадей / А.А. Стекольников, Б. С. Семенов, Э. И. Веремей. – М.: Колосс, 2009. - 208 с.

6. Тимофеев С.В. Диагностика болезней конечностей / А.А. Стекольников, Г.Г.Щербаков, Г.М.Андреев и др. // Содержание, кормление и болезни лошадей. СПб.: Издательство «Лань». - 2007. - С. 358 - 378.

7. Трудова Л.Н. Возможности физиотерапии в ветеринарной практике / Л.Н. Трудова, // «Современные проблемы ветеринарной хирургии»: Материалы международной научно практической конференции. - СПб. Издательство СПбГАВМ, 2004. - С. 69 - 70.

8. Шакалов К.И. Болезни сельскохозяйственных животных, профилактика и лечение // Материалы всесоюзной ьезвузовской конференции по вопросам ветеринарной хирургии. -Ленинград. – Leningrad, 1981.

9. <http://www.horsesandpeople.svoi.info/vetK-M.html>.